O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	



AHOLINING TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI

Ostanova Nargiza Baratovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti
nargizanargiza418@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy farovonlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi turmush farovonligini oshirishdagi roli, yangi ish o'rinlari yaratish, daromadlarni ko'paytirish, va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ahamiyati, ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirishdagi o'rni va ekologik barqarorlikka qo'shgan hissasi tahlil etiladi. Tadqiqot O'zbekistondagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining ijtimoiy farovonlikni oshirishga bo'lgan ta'sirini yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: turmush darajasi, ijtimoiy farovonlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, bandlik, barqaror rivojlanish, hududiy rivojlanish, aholi daromadlari, ehtiyoj, ish haqi, pensiya, tovar, oziq-ovqat, iste'mol xarajatlari.

Abstract: This scientific article analyzes the impact of small business and private entrepreneurship on social well-being in Uzbekistan. The article explores the role of small business and private entrepreneurship in improving the living well-being of the population, creating new jobs, increasing revenues, and ensuring economic stability. The article also analyzes the importance of small business and private business entities in the economic development of Uzbekistan, their role in the implementation of Social Responsibility and their contribution to environmental sustainability. The study concludes with proposals to further deepen and develop the impact of the small business and private entrepreneurship sector in Uzbekistan on increasing social welfare.

Key words: standard of living, social welfare, small business, private entrepreneurship, employment, sustainable development, regional development, population income, needs, wages, pensions, goods, food, consumer spending.

Аннотация: В данной научной статье анализируется влияние малого бизнеса и частного предпринимательства на социальное благополучие в Узбекистане. В статье исследуется роль малого бизнеса и частного предпринимательства в повышении благосостояния населения, создании новых рабочих мест, увеличении доходов и обеспечении экономической стабильности. В статье также анализируется значение малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства в экономическом развитии Узбекистана, их роль в реализации социальной ответственности и вклад в экологическую устойчивость. Исследование завершается предложениями по дальнейшему углублению и развитию влияния малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане на повышение социального благосостояния.

Ключевые слова: уровень жизни, социальное обеспечение, малый бизнес, частное предпринимательство, занятость, устойчивое развитие, региональное развитие, доходы населения, потребности, заработная плата, пенсии, товары, продукты питания, потребительские расходы.

KIRISH

Respublikamizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, xalqning turmush darajasi, mehnat resurslarining bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish holati bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa korxonalarning iqtisodiy erkinlik darajasining ortib borishi bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini oshirish, kichik biznes uchun qulay muhitni yaratish, tartibga solishning pul-kredit mexanizmlaridan samarali foydalanish yangi ish o'rinlarini yaratishda va aholi faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Bugungi kunda o'z biznesini yo'lga qo'yib, o'zi, oilasi, mahallasi, el-yurt farovonligiga munosib hissa qo'shayotgan, iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qilayotgan tadbirkorlar va xususiy korxonalar safi tobora kengaymoqda. Natijada yurtimiz aholisi orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Aholining turmush farovonligini oshirish ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish va lokal iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash orqali aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati hamda bu sohaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan omillar yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyatini o'rganishga oid adabiyotlar ularning iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi yillardagi o'sish sur'atlari kichik biznes va tadbirkorlik sektorining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. A.N. Akbarov o'zining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi roli" nomli ilmiy ishida kichik biznesning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri, xususan, aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish va daromadlarni oshirishdagi muhim ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotda kichik biznesning ijtimoiy barqarorlikka qo'shgan hissasi ham ko'rib chiqilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy farovonlikka ta'siri bo'yicha adabiyotlar, asosan, ushbu faoliyatning mahalliy aholi uchun qanday ijtimoiy foydalar keltirishi bilan bog'liq. L.T. Karimovning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri" nomli maqolasida bu sohaga nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish omili sifatida qaraladi. Muallif kichik biznesning jamiyatda ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va tenglikni ta'minlashdagi rolini asoslab beradi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yuridik va iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. O.I. Mahmudovning "O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari" nomli kitobida respublika hududida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi. Mahmudov kichik biznesning mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas'uliyatini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar ham mavjud. M.M. Tursunovning "Xususiy tadbirkorlik va ijtimoiy mas'uliyat" nomli maqolasida kichik biznes va tadbirkorlarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy mas'uliyatlariga oid masalalar yoritilgan. Muallif xususiy tadbirkorlik subyektlarining jamiyat ehtiyojlarini qondirishdagi o'rnini, ayniqsa, mahalliy aholining turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Shuningdek, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir amalga oshirilgan islohotlar va davlat dasturlari haqida ham bir qator ilmiy ishlar mavjud. X.M. Yusupovning "O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat siyosati" nomli maqolasida davlat tomonidan ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan siyosat, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va institutsional choralar tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotda kichik biznes subyektlari uchun taqdim etilgan imtiyozlar, grantlar va subsidiya dasturlari batafsil ko'rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot mavzusi mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini oshirish masalalariga bag'ishlanganligi sababli, avvalo, mavzu doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, hukumat qarorlari bilan belgilangan vazifalar hamda iqtisodchi olimlarning mazkur yo'nalishda olib borgan ilmiy ishlari o'rganildi. Ushbu manbalar asosida mavzuning o'rganilganlik darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish va farazlarni asoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishining qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. U bandlik muammolarini hal etish, milliy boylikni oshirish va aholining farovonligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholining turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati haqida gap borganda, bir qator amaliy misollarni keltirish mumkin. Masalan, kichik biznes subyektlari va xususiy tadbirkorlar yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkorlar ko'pincha o'z



oilasi a'zolari hamda mahalliy aholi vakillarini ish bilan ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishsizlik darajasini kamaytirishga va mahalliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining rivojlanishi natijasida mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, ushbu sektor respublika bo'yicha jami ish o'rinlarining 70 foizdan ortig'ini ta'minlagan (1-rasm). Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (yillar kesimida, respublika bo'yicha foiz holatiga)¹.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarga ko'ra, aholi bandligini oshirishda aynan kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi katta ekanligi kuzatilmoqda. 2024-yil yakuni bo'yicha respublikada yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 79 667 tani tashkil etgan bo'lib, ularning eng katta ulushi – 17 021 ta korxona va tashkilot, ya'ni 21 foizi – Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa 2 foiz (1 852 ta korxona) bilan Sirdaryo viloyatida qayd etilgan.

Mintaqalarda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari, ayniqsa, yoshlar va ayollar o'rtasida ish o'rinlari yaratishda ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mahalliy bizneslar odatda mahalliy resurslardan foydalanadi va shu hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotadi. Bu esa mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va mahalliy daromadlarni oshirishga xizmat qiladi. Mahalliy bizneslarning muvaffaqiyati, o'z navbatida, hududiy iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirish bo'yicha quyidagi statistik ma'lumotlar mavjud:

1-jadval. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (2019–2023 yillar, % da)²:

Yil	Kichik biznes ulushi (%)
2020	57,5
2021	56,9
2022	54,6
2023	54,3
2024	54,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi 2024-yilda 54,3 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 3,2 foizga kamaygan. Biroq umumiy holatda qaraydigan bo'lsak, boshqa yirik korxona va tashkilotlarga nisbatan 54,3 foiz ko'rsatkich bilan kichik biznes hanzugacha iqtisodiyotning yetakchi qismini tashkil etayotganini ko'rish mumkin.

Kichik bizneslar o'zining moslashuvchanligi bilan ajralib turadi hamda bozorda tezda yangi mahsulot yoki

1 Manba: <https://stat.uz>

2 Manba: <https://stat.uz>



xizmatlarni joriy eta oladi. Bu esa raqobat muhitini kuchaytiradi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Shu orqali iste'molchilarga yanada sifatli xizmat va mahsulotlar taklif etiladi.

Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlik ijtimoiy muammolarni hal etishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, ayrim tadbirkorlar ekologik muammolarni bartaraf etish yoki mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirmoqda.

Statistik tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2024–yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmi 1,45 kvadrillion so'mni yoki 115 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 6,5 foizga o'sgan. Taqqoslash uchun, 2023–yilda iqtisodiy o'sish sur'ati 6 foizni tashkil etgan (2-rasm).

2-rasm: O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM) dinamikasi³

Aholining turmush darajasi bilan bog'liq dastlabki omil – aholi soni dinamikasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2020–yilda respublika aholisi 33,9 million kishini tashkil etib, 1991–yilga nisbatan 13,3 million kishiga yoki 64,6 foizga oshgan. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi aholisi eng ko'p mamlakat hisoblanadi. Statistika agentligining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2025–yil 1–yanvar holatiga ko'ra 37 million 543,2 ming kishiga yetgan. Shu tariqa 2024–yilda aholi o'sishi 2 foizni yoki 743,4 ming kishini tashkil etgan. 2024–yil 1–yanvar holatida respublika aholisi 36,8 million nafarni tashkil etgan.

2024–yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM) 39,13 million so'mni yoki 3 092,7 AQSH dollarini tashkil etgan. 2023–yilda bu ko'rsatkich 33,08 million so'm yoki 2 818 AQSH dollariga teng bo'lgan. Bu esa YAIM jon boshiga hisobda 6 million so'mdan ortiq yoki 18,3 foiz o'sishni anglatadi. Inflyatsiya hisobga olingan holda real o'sish 4,4 foizni tashkil etgan.

Aholi daromadlarining oshib borishi bilan birga, mamlakatimizda iste'mol tovarlarining mahalliyashtirilishi, ularning ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish orqali ushbu daromadlardan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Aholining iste'mol xarajatlari tarkibi yildan-yilga optimallashtirib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlariga ajratiladigan xarajatlar nisbatan barqarorlashgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga qilinayotgan xarajatlar ulushi ortib bormoqda.

Yaxshi infratuzilma – masalan, transport, aloqa va energetika tarmoqlari – kichik bizneslarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarurdir. Samarali ishlaydigan infratuzilma biznes jarayonlarini yengillashtiradi va ularning samaradorligini oshiradi.

O'zbekistonda iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng kam miqdorlarni shakllantirishda quyidagi omillarni inobatga olish lozim:

- demografik omillar (oilalarning tarkibi, kattaligi-kichikligi, aholining jins va yoshga ko'ra tuzilmasi);
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar (aholining oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlardan amalda foydalanish hajmi);
- aholining barcha guruhlar ehtiyojlari va ularning daromad darajasi;
- inson salomatligini saqlash va hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan eng kam iste'mol hajmlari hamda tovar va xizmatlar ro'yxati bo'yicha ilmiy tavsiyalar;
- ijtimoiy himoyani ta'minlash borasida davlatning moliyaviy imkoniyatlari;
- tovar va xizmatlarning real bozor narxlari;
- boshqa mamlakatlar tajribasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholining turmush farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatni kuchaytirish orqali ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu sohaning barqaror rivojlanishi uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sifatli ta'lim, qulay yuridik muhit va zamonaviy infratuzilmani shakllantirish muhim omillar hisoblanadi. Ushbu sharoitlar ta'minlangan taqdirdagina kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholi turmush darajasini oshirish mumkin.

Bundan tashqari, tadbirkorlar uchun kreditlar, grantlar va boshqa moliyaviy mexanizmlarning mavjud bo'lishi zarur. Bu omillar yangi biznes subyektlarining shakllanishiga va mavjud korxonalar faoliyatining kengayishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun yuridik va me'yoriy-huquqiy muhitni takomillashtirish talab etiladi. Yangi subyektlarni ro'yxatdan o'tkazish, soliqlarni to'lash va boshqa yuridik jarayonlarni soddalashtirish tadbirkorlarning faoliyatini yengillashtiradi hamda ularning samaradorligini oshiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga ortiqcha aralashuvlarni bartaraf etish eng ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususiy sektorning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ta'siri orqali aholi bandligini oshirish, daromadlar darajasini yaxshilash, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda ekologik mas'uliyatni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shu jihatdan, kichik biznes va



xususiy tadbirkorlikni tizimli qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi. Toshkent, 2017–yil, 22–dekabr. www.uza.uz
2. Abdurahmonov Q.H., Xolmo'minov Sh.R. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Toshkent, 2004–yil.
3. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Mehnat, 1997–yil.
4. Javlonov A. (2020). "Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri". O'zbekiston iqtisodiyoti: holati va rivojlanish istiqbollari. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti.
5. Siddiqov M. (2021). "O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati". Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali.
6. Raximov R. (2019). O'zbekiston iqtisodiyoti va kichik biznes: Ijtimoiy va iqtisodiy ta'sir. Toshkent: Iqtisodiyot institutining nashriyoti.
7. Tursunov N. (2020). "Xususiy tadbirkorlik va ijtimoiy farovonlik: O'zbekiston tajribasi". Toshkent: O'zbekiston Davlat universiteti nashriyoti.
8. Karimov U. (2021). "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni". Toshkent iqtisodiyoti va jamiyat: Tadqiqotlar, tahlil va istiqbollar.
9. Akbarov N. (2018). "O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes: Iqtisodiy tahlil". O'zbekistonning iqtisodiy muammolari. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
10. <https://www.stat.uz>
11. <https://www.gazeta.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
